

Morfema va uning turlari

Do'smatova Lobar

Erdanova Xurshida

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tilyo'nalishi talabalari

Anatatsiya: morfema yunoncha tildan olingan, morfemaning turlari , so'z yasovchi morfemalar, morfema termini haqida, so'z shaklini hosil qiluvchi .

Kalit so'z: affikslar, leksemalar, asos va qo'shimchalar, agglutinative tillar, flektiv tillar.

Morfema yunoncha morphe-shakl, o'ziga xosshakl va ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, so'z (leksima) yasash yoki so'zning shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik. Morfemalar o'zbek tilida , asosan, affiks (qo'shimcha) holatida bo'ladi. Masalan, -chi (kurashchi), -shunos (siyosatshunos), -q (taroq), -ki (tepki), -li (aqilli), -chan (ishchan), -la (tuzla), -illa (taqilla), -lar (bolalar), -rok (kattaroq), -mtir (qoramtir) va hokazo. Morfemalar asosiy vazifasiga ko'ra 2 turga bo'linadi: so'z yasovchilar, so'zning shaklini yasovchilar . So'z yasovchi morfemalar yangi-yangi leksemalar hosil qilish uchun qo'llaniladi va o'zbek tilining lug'at qatlamining boyishida muhim rol o'ynaydi. So'z shakli hosil qiluvchi morfemalar so'zning qo'shimcha ma'no yuklaydi. Masalan, daraxtlar (daraxt so'zining ko'plik shakli), balandroq (baland so'zining daraja shakli), sarg'ish (sariq so'zining ozaytirma shakli), keldim (kel fe'lining o'tgan zamon birinchi shaxs birlik shakli) va boshqa morfemalar mustaqil qo'llanmaydi, lug'aviy ma'no ifodalay olmaydi, faqat so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolari shakllanishiga xizmat qiladi. So'z tarkibida morfema ishtirok etmasligi ham mumkin. "Morfema" termini va

tushunchasini tilshunoslikka polyakrus tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene kiritgan.

Morfema soʻzning eng kichik maʼnoli qismi hisoblanadi. Morfema asos (yetakchi morfema) va qoʻshimchalar (koʻmakchi morfemalardan) iborat. Qoʻshimcha (koʻmakchi morfema) mustaqil qoʻllana olmaydigan, asosga qoʻshilib faqat vazifa bajaradigan qismdir. Asos (yetakchi morfema) soʻzda, albatta, ishtirok etadigan, soʻzning asosiy maʼnolarni ifodalab, mustaqil qoʻllana oladigan qismi yaʼni soʻzning tub maʼnoli qismidir. Koʻmakchi morfema vazifasiga koʻra 2 xil boʻadi.

Soʻz yasovchi morfemalar – asosga qoʻshilib yangi maʼno hosil qiluvchi qoʻshimchalar .

Shakl yasovchi morfemalar –asosga qoʻshilib uninf maʼnosiga qoʻshimcha maʼno yuklash yoki oʻzi qoʻshillayotgan soʻzni boshqa soʻzga bogʻlash vazifasini bajaruvchi qoʻshimchalar. Soʻzni morfemaga ajratishda har doim asosning maʼnosi eʼtiborga olinadi. Morfemalar turli tillar kesimida Agglutinativ tillar va Flektiv tillar. Agglutinativ tillar bu guruhga turkey tillar,Osiyo va Afrika koʻpgina tillar kiradi. Bu tillarda soʻzlarda sintaktik bogʻlanishda oʻzak, negizi oʻzgarmasdan toʻgʻridan –toʻgʻri qoʻshilib kelaveradi. Flektiv tillar bu guruhga Hind-Yevropa tillar oilasi kiradi. Ularga Grammatik maʼnoni ifodalovchi affikslar soʻz oʻzagi bilan juda zich birijib ketadi. Bu hodisa Fuziya deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Oʻzbek tili grammatikasi. Gʻ. Abdurahmonov 1972-610 b.
- 2.Mengliyev B.R. Hozirgi oʻzbek tili. Morfemika. Qarshi-2005
- 3.Oʻzbekiston molliy ensiklopediyasi (2000-2005)
- 4.Tilshunoslikka kirish. Qoʻllanma. Xolmonova Z.T 2000

5. Tilshunoslikga kirish. M.Irisqulov 1992 Indiana Universiteti